



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



TASHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI VA ULARNING TA'SIR DOIRALARI

Jalilova Jasmina Shuxrat qizi

Ilmiy rahbar: **Salimov Aziz**

Qarshi davlat texnika universiteti

Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda bugungi kunda tashqi sado dinamikasi yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, tashqi savdoni tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy omillari va ularning ta'sir doiralari haqida so'z boradi. Muallif iqtisodiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida bojxona bojlarining tashqi savdoni tartibga solishda qo'llanilishi va iqtisodiy ahamiyati bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Bojxona, boj, saldo, tashqi savdo dinamikasi, tarif va notarif, import, eksport.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda tashqi sado dinamikasi yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham tashqi savo miqdorini oshirish va shu asosda eksportni qo'llab quvvatlash, budjetga yo'naltirilgan import bojlarining optimal formasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tashqi savdoni integratsiyalashuv orqali miqdoran va sifatian oshirish bugungi kundagi globallashuvning muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Tashqi savdoning salbiy saldosi yuzaga keltirmaslik maqsadida davlatlar o'zlarining protokseionizm siyosatini amalga oshiradi. Shu proteksionizm siyosati tarif va notarif usullar orqali amalga oshirilsa, shu asosda ichki bozorni himoya funksiyasini ham bajaradi. Bugungi kunda amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishda mamlkatimniz import bojlari yo'lini amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kundagi o'zgartirishlar milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash, innovatsion rivojlanish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish, qulay investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqola tashqi savdo nazariyalarining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, tashqi savdoni tartibga solinishi tashkiliy-iqtisodiy omillari, tashqi savdoni tartibga solish usullari va uni erkinlashtirish yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Asosiy qism (Main part)

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 13-aprelda PF-5012-son ga ko'ra "Tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash



hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish" borasida qator ko'rsatmalar berilgan edi. Biroq oradan 2 yil o'tib ushbu farmon to'ldirildi.

2019-yilning 28-yanvarda "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimiz farmoniga ko'ra o'zgartirilgan hamda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi va uni tartibga solish borasida bir qator to'ldirishlar berib o'tilgan.

Yuqoridagi farmon negizida tashqi iqtisodiy faoliyat va savdoni davlat tomonidan tartibga solish, eksport-importni litsenziyalash, eksport kontraktlarni ro'yxatga olish va import kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish, boshqa savdo-iqtisodiy shartnomalarni ro'yxatga va hisobga olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilib kelinmoqda.

Jahon xo'jaligining 21-asr boshlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri – mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hamda takomillashuvining yuqori bosqichga chiqishidir.

Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini, o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama o'ylangan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi.


Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllaridan bo'lmish - tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatning savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'liq. Savdo siyosatining tub mohiyatidan kelib chiqilsa, iqtisodiy masalalar asosiysi hisoblanadi.

Davlatlar o'z ichki bozorlarini himoyalash, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatini savdo siyosatining mavjud vositalari yordamida tartibga soladi.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish deganda odatda boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalami rivojlantirish va tartibga solishga yo'naltirilgan faoliyat tushuniladi. Tashqi savdoga davlat aralashuvi darajasiga ko'ra savdo siyosatini proteksionistik saydo siyosatiga hamda erkin saydo siyosatiga ajratish mumkin. Tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning alohida olingan mamlakatlar va mamlakatlar guruhlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalardagi strategik maqsadlarni aniqlashni, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishishni va erishilgan natijalami saqlab qolishni ta'minlovchi usullar va vositalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.



Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning ichki iqtisodiy siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Shuning sababli ham uning tarkibi, bir tomondan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi tabiati bilan, ikkinchi tomondan esa, o'z milliy xo'jaligi miqyosida davlat tomonidan yechilayotgan ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan ifodalanadi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining shakllanishiga jahon xo'jaligida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ro'y berayotgan:



Yuqorida keltirilgan jarayonlarning ta'siri zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosatda ikki: erkinlashtirish va proteksionizm (himoya qilish) jarayonlarining o'zaro doimiy ta'sirini vujudga keltiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning muhim sharti tashqi savdo operatsiyalari asosida foyda darajasini oshirish imkoniyatidir. Tashqi savdoning kengayishi doimiy va o'zgaruvchan kapital elementlarini arzonlashtiradi va shu bilan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Turli mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi raqobat tufayli jahon bozorida tovarlarning jahon bahosini ularning xalqaro qiymati darajasiga yetkazish mumkin, bu ijtimoiy mehnat unumdorligi past bo'lgan kam rivojlangan mamlakatlardagi milliy qiymatdan past, lekin undan yuqori. rivojlangan mamlakatlardagi milliy qadriyat darajasidan ko'ra.

Tashqi savdoni rivojlantirishning muhim omili kapital eksporti bo'lib, uning asosida kapital hajmi bo'yicha ko'pincha milliy va xalqaro miqyosdagi transmilliy korporatsiyalar paydo bo'ladi. Faoliyati va kapitali bo'yicha xalqaro bo'lgan transmilliy korporatsiyalar ham mavjud. Xalqaro savdoda transmilliy korporatsiyalarning roli juda katta, chunki ularning korporativ ichidagi aylanmasi xalqaro eksportning uchdan bir qismini tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir etib, uni samarali tartibga solish milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin yaratadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish – bu O‘zbekiston eksport mahsulotlarining jahon bozori mahsulotlari bilan teng raqobat qilishi uchun eksportchilarni davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlash, chet el sarmoyasi kirib kelishiga qulay sharoitlar yaratish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan davlat siyosatidir.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatda amalga oshirilayotgan liberallashtirish jarayonlari natijasida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish xalqaro amaliyot me‘yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmoqda, miqdoriy cheklashlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda, erkin ayirboshlanadigan valyutaga milliy raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksport qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa, katta eksport salohiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzluksiz ravishda takomillashib bormoqda.

Bilamizki, tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda bojxona va undagi to‘lovlar asosiy rol o‘ynaydi va bu sohada turli mamlakatlarda sohaga mos kodeks jamlanmasi tuziladi. Quyida berilgan jadvalda 2016-2022-yillarda mamlakatimizda bojxona bojlarining turlari foiz ulushlari kesimida yoritib berilgan.

6-jadval. Bojxona to‘lovlarining foizdagi ulushi miqdori

Bojxona turlari	bojlari	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Import bojxona boji		25,8	22,5	22,3	27,8	21,1	24,8	23,4
Qo‘shilgan qiymat solig‘i		54,1	60,4	61,1	52,2	60,7	57,4	58,7
Aksiz solig‘i		17,2	14,5	13,2	16,4	15,3	14,1	15,3
Bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlar		2,9	2,6	3,4	3,6	2,9	3,7	2,6
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

O‘zbekiston jahonning 182 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (17,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (17,7 %), Qozog‘istonda (9,3 %), Turkiyada (8,1 %), Koreya Respublikasida (4,5 %), Qirg‘iz Respublikasi (2,3 %) va Turkmanistonda (2,1 %) qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to‘rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg‘oniston,



Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 39,1 % ulush bilan 16 431,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 1,1 % ulush bilan 443,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi yoki 37,7 % i MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi 5,1 % ga ko'paygan.

Xulosa va takliflar

Har bir davlat o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda turli xil vositalardan foydalanadi va ularni qo'llashni doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari tarkibida bojxona to'lovlari asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda bojxona to'lovlarining tarkibiga import boji, aktsiz va qo'shilgan qiymat solig'i hamda bojxona yig'implari kiradi. Boj va soliqlar stavkalarining miqdori mamlakat tashqi savdosining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatda amalga oshirilayotgan liberallashtirish jarayonlari natijasida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish xalqaro amaliyot me'yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmoqda, miqdoriy cheklashlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda, erkin ayirboshlanadigan valyutaga milliy raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksport qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa, katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzluksiz ravishda takomillashib bormoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Kodeksi" – T.: "Adolat", 2017 – 306 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Soliq Kodeksi" –T.: "Adolat", 2017–394b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyulda qabul qilingan "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5075-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-3232501>
4. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". –T.: "O'zbekiston", 2017. – 56 b.



5. A.Alimov, M. Qurbanova. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: 2016. –176 b.
6. Shodiyev R., E.Mahmudov, Jahon iqtisodiyoti –T.:“G'afur G'ulom” 2005. – 165 b.
7. Vaxobov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –T.: 2016. –304b.
8. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: - “Iqtisod-moliya”, 2019. – 408 b.
9. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебник, –М.: 2004. –368 с.
10. Малюгина И.Н. Меры поддержки экспорта в странах ЕС и Российской Федерации. –М.: 2018. –158 с.
11. Mozer S.V. Digital Customs. WCO Experience // Monograph. –Moscow: Publishing. House of the Russian Customs Academy, 2019. –266p.

